

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKHLARI SIYOSIY TIZIMI XUSUSIYATLARI

Valiyev Botir Nosirovich
falsafa fanlari nomzodi,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqola Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tizimining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga bag’ishlangan. Unda Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tizimining jahon siyosatida va xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, shuningdek, uning davlat sifatida shakllanishi va xalqaro hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari, ularga ta’sir etuvchi omillar hamda vazifalari tahlil etiladi.

Kalit so’zlari: siyosiy tizimin, jahon siyosati, Birlashgan Arab Amirliklari, xalqaro munosabatlar, Federal Milliy Kengash, “Yumshoq kuch kengashi”.

ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБЪЕДИНЕННЫХ АРАБСКИХ ЭМИРАТОВ

Валиев Ботир Носирович
кандидат философских наук,
Доцент Международной исламской академии Узбекистана

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению особенностей политической системы Объединенных Арабских Эмиратов. В нем анализируется роль политической системы Объединенных Арабских Эмиратов в мировой политике и международных отношениях, а также приоритетные направления ее формирования как государства, ее международное сотрудничество, влияющие на них факторы и задачи.

Ключевые слова: политическая система, мировая политика, Объединенные Арабские Эмираты, международные отношения, Федеральный национальный совет, «Совет мягкой силы».

FEATURES OF THE POLITICAL SYSTEM OF THE UNITED ARAB EMIRATES

Valiev Botir
Candidate of Philosophical Sciences,
Associate Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan

ABSTRACT

The article is dedicated to the study of the specific aspects of the political system of the United Arab Emirates. It analyzes the role of the political system of the United

Arab Emirates in world politics and international relations, as well as the priority directions of its formation as a state and international cooperation, factors affecting them and tasks.

Key words: political system, world politics, United Arab Emirates, international relations, Federal National Council, "Soft Power Council".

KIRISH

Demokratik prinsiplar, qadriyatlar va institutlar mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga tobora ko‘proq kirib bormoqda. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘snnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan ham butun dunyoga tanilmoqda, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallab, yildan-yilga mavqeい mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlariagi diplomatik vakolatxonalari yordamida mintqa davlatlari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Misr, Bahrayn, Omon, Qatar, Iordaniya, Isroil, Eron va sh.k.) bilan, jumladan Birlashgan Arab Amirliklari bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha faol sa’yi-harakatlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining mazkur davlatlar bilan aloqalari avvalo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda respublikamizning O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha tadbirlari muhim ahamiyatga molik bo‘lmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tiziminining jahon siyosatida va xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro hamkorligini yanada rivojlantirish mexanizmi sifatida O‘zbekistonning Birlashgan Arab Amirliklari bilan aloqalari va istiqbollarini tadqiq etish ham, shu jihatdan e’tiborga molikdir. Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tizimi misolida uning davlat sifatida shakllanishi va xalqaro hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari, ularga ta’sir etuvchi omillar hamda vazifalarini tahlil etish ham dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tiziminining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish va tadqiq etish, shuningdek mamlakatimizning musulmon mamlakatlari bilan ilmiy-madaniy aloqalarini yanada mustahkamlash va hamkorlik munosabatlarini kengaytirish bo‘yicha ma’lumotlar va tahlillar ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayonlari uchun ham dolzarbdir.

ADABIYOT VA USUL

Birlashgan Arab Amirliklari 1971 yil 21 dekabrda tashkil etilgan. Siyosiy tizimi bo‘yicha BAA konstitutsiyaviy federatsiya hisoblanadi. Siyosiy tizim BAA

Konstitutsiyasiga asoslanadi. BAA o‘z bayrog‘i, gerbi va milliy madhiyasiga ega. Birlashgan Arab Amirliklari hukumati BAAdagi siyosiy tizimni isloh qilish uchun bir qancha qadamlar qo‘ydi. BAAning barcha fuqarolari xalqaro miqyosda tan olingan Birlashgan Arab Amirliklarining yagona fuqaroligiga ega. BAA yettita amirlikdan iborat: Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ras Al Xayma (1972 yil fevralda federatsiyaga qo‘silgan), Ajman, Umm Al Quvayn, Fujayra [1.B.19].

Ma’muriy jihatdan BAA yettita amirlik federatsiyasi bo‘lib, ularning har biri o‘z hukmdoriga ega. Har bir amirlikda mahalliy hokimiyatni isloh qilish sur’ati bиринчи navbatda hukmdor tomonidan belgilanadi. 1971 yilgi vaqtinchalik konstitutsiyaga ko‘ra, har bir amirlik katta vakolatlarni, jumladan, foydali qazilmalarga (ayniqsa, neftga) bo‘lgan huquqlar va daromadlar ustidan nazoratni o‘zida saqlab qoladi. Shu sharoitda federal vakolatlar asta-sekin rivojlanib bordi, chunki har bir amirlikda mamlakatning rasmiy tashkil etilishidan oldin o‘z boshqaruv institutlari mavjud edi. [2].

Birlashgan Arab Amirliklari konstitutsiyasi vakolatlarni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga ajratadi. Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar federal va amirlik yurisdiksiyalariga bo‘linadi. Konstitutsiya prezident (davlat boshlig‘i) va vitse-prezident lavozimlarini belgilab berdi. 2022-yil 14-mayda Shayx Muhammad bin Zayed Al Nahayon, vafot etgan prezident Shayx Xalifa bin Zoid Ol Nahayondan keyin BAAning yangi prezidenti etib saylandi.

BAA avtoritar davlatdir. Bu yerda yettita tarkibiy monarxiyani amir hukmdorlar avtokratik tarzda boshqaradi. Demokratik yo‘l bilan saylangan institutlar va so‘z erkinligini ta’minlash uchun rasmiy majburiyatlar belgilanmagan.

1958-yilda Abu-Dabida neftning topilishi va mamlakatning keyingi neft boyliklari ortib borishi uning siyosati va iqtisodini belgilab berdi, shuningdek, tashqi siyosiy xatti-harakatlarini shakllantirdi. Abu-Dabi BAAning poytaxti, garchi bu shahar emas, balki amirlik bo‘lsa-da, u tarixiy Al-Ayn shahrini ham o‘z ichiga oladi. Dubay ham Amirlik hisoblanadi va Abu-Dabiga yaqin joylashgan.

BAA konstitutsiyasining 47-moddasi umumiyligi siyosatni shakllantirishda kengash vakillarining muhim vakolatlarini belgilaydi: barcha davlat masalalari bo‘yicha qonunchilikni, federal qonunlar va farmonlarni, shu jumladan byudjet va fiskal masalalarga oid qonunlarni ratifikatsiya qilish, xalqaro shartnoma va bitimlarni ratifikatsiya qilish, bosh vazir va Oliy sud sudyalarini tayinlash shular jumlasidan. Qarorlar, agar Abu-Dabi va Dubayni o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan uchdan ikki qismi (etti hukmdorning beshtasi) ovozini talab qiladigan muhim masalalarga taalluqli bo‘lmasa, oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Oliy Kengash Vazirlar

Kengashini ham saylaydi, barcha amirliklardan tuzilgan 40 a'zodan iborat Federal Milliy Kengash taklif qilingan qonunlarni ko'rib chiqadi. [3,1].

Federal hokimiyat vakolatiga tashqi ishlar, xavfsizlik va mudofaa, fuqarolik va immigratsiya masalalari, ta'lif, sog'liqni saqlash, valyuta, pochta, telefon va boshqa aloqa xizmatlari, havo harakatini boshqarish, havo kemalarini litsenziyalash, mehnat munosabatlari, bank ishi, hududiy suvlarni chegaralash va jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish kiradi. Konstitutsianing 120 va 121-moddalaridan chiqarib tashlangan masalalar tegishli Amirliklarning yurisdiksiyasida bo'lishi kerak va 116-modda bilan yana bir bor tasdiqlanadi: "Amirliklar ushbu Konstitutsiya bilan federatsiyaga yuklanmagan barcha vakolatlarni amalga oshiradilar". Bu 122-moddada yana takrorlanadi, unda "Amirliklar oldingi ikki moddaning qoidalariga muvofiq federatsianing mutlaq yurisdiksiyasiga kiritilmagan barcha masalalar bo'yicha yurisdiksiyaga egadirlar". [3,2].

NATIJALAR

2010 yilda federal va mahalliy darajadagi sa'yi-harakatlarni birlashtirish orqali BAA ni 2021 yilgacha "dunyodagi eng yaxshi mamlakatlardan biriga" aylantirishga qaratilgan "Vizyon 2021" milliy xartiyasi ishga tushirildi. "Vizyon 2021" to'rtta maqsadga qaratilgan:

1. BAA fuqarolarining g'urur va mas'uliyat hissiga ega bo'lishini, kelajakni ishonch bilan chizishga qodir bo'lishini va barqarorlik, birdamlik, mo'tadil islom qadriyatlari va milliy merosga asoslangan barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitda samarali ishtiroy etishini ta'minlash.
2. Amirlikni himoya qiladigan va muvozanatli rivojlanish tarafdori bo'lgan umumiy istiqbolga ega kuchli ittifoqni ta'minlash.
3. Amirliklar tomonidan boshqariladigan turli malaka va bilimga asoslangan moslashuvchan iqtisodiyotni rivojlantirish.
4. BAA fuqarolari uchun farovonlikni ta'minlash. [4].

BAA tashqi siyosati davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda adolatning zarurligiga bo'lgan ishonchga asoslanadi. Bu boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga rioya qilish va imkon qadar nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilish, BMT kabi xalqaro institutlarni qo'llab-quvvatlash zarurligini o'z ichiga oladi.

Birlashgan Arab Amirliklarining "Yumshoq kuch kengashi" shakllanishi mamlakatning milliy kun tartibini qo'llab-quvvatlash va BAA ning yetakchilik va mukammallikning global namunasi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan. U mamlakatning butun dunyodagi mavqeini mustahkamlashga, hukumatlar va fuqarolarning o'zaro hurmati kabi qadriyatlarini mustahkamlashga intiladi.

Iqtisodiy va harbiy qudrati bilan bir qatorda, BAAning uzoq muddatli rejasi kuchli izchil xalqaro siyosatni ilgari surish, diplomatik munosabatlar o‘rnatish va BAA madaniyati, qadriyatları, tarixi, bilimi va qarashlarini barchaga tanishtirishdan iborat. BAA “Yumshoq kuch kengashi” bevosita mamlakat Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi va quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) butun dunyo bo‘ylab hukumatlar va fuqarolar bilan mamlakatning mavqeini mustahkamlash uchun keng qamrovli strategiyani belgilash; 2) yumshoq kuchga erishishda ham davlat, ham xususiy sektorlarning rollarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan milliy strategiyani joriy etish; 3)davlat uchun yumshoq kuch strategiyasini (shu jumladan fan, madaniyat, texnologiya, gumanitar ishlari va iqtisodiyot sohalarida) ishlab chiqish; 4)BAAning barcha strategik mamlakatlardagi maqomi va obro‘siga ta’sir qiluvchi barcha qonunchilikni va siyosatni ko‘rib chiqish; 5) yumshoq kuch tashabbuslari bo‘yicha maslahat va ma’lumotlar berish; 6)mamlakatning fan, madaniyat, san’at, turizm, savdo, gumanitar va boshqa sohalardagi yutuqlari, ambitsiyalari va tajribasini mintaqaviy va xalqaro miqyosda himoya qilish[5].

BAA siyosiy tizimi quyidagicha ishlaydi. Siyosiy tizim mamlakat siyosiy va konstitutsiyaviy tuzilishining asosiy qoidalarni tushuntirib beruvchi Konstitutsiyaga asoslanadi. Konstitutsiya federatsiyani tashkil etishning asosiy maqsadi va uning mahalliy hamda mintaqaviy miqyosdagi maqsadlarini ko‘rsatadi. U BAAning barcha fuqarolariga teng huquq va imkoniyatlar, xavfsizlik va ijtimoiy adolatni kafolatlaydi.

MUHOKAMA

Konstitutsiyada BAAning siyosiy-huquqiy asoslarini va fuqarolarning o‘nta sohadagi huquqlarini belgilovchi 152 ta modda mavjud bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi: Federatsiya, uning saylov okruglari va asosiy maqsadlari; Federatsyaning asosiy ijtimoiy va iqtisodiy asoslari; Jamoat erkinligi, huquq va burchlari; Federal hokimiyat organlari; Federal qonunlar, qarorlar va vakolatli organlar; Amirliklar; Federatsiya va amirliklar o‘rtasida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va xalqaro yurisdiksiyani taqsimlash; Federatsyaning moliyaviy masalalari; Qurolli kuchlar va xavfsizlik kuchlari; Yakuniy va o‘tish qoidalari.

BAA siyosiy tizimidagi asosiy o‘zgarishlar o‘tgan yillar davomida o‘zining siyosiy tizimini rivojlantirish, uni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlariga ko‘proq moslashtirish va aholisining global rivojlanish muammolarini yengish uchun jihozlanishini ta’minlashga oid ko‘plab qadamlar qo‘yilgani bilan bog‘liq.

2006-yilda Federal Milliy Kengash saylovlar va saylovlar kollegiyasining tashkil etilishi BAA siyosiy tizimida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadamlar edi. 1972 yildan 2006 yilgacha Federal Milliy Kengash

barcha 40 a'zosini nomzod qilib ko'rsatish amal qilgan bo'lsa, 2006 yildan boshlab FMKning 20 a'zosi saylovchilar kollegiyasi tomonidan saylangan va 20 nafari tegishli amirliklar hukmdorlari tomonidan saylangan. 2008 yilda Oliy Kengash FMK vakolatlarini yanada kengaytirish va uning ta'sir doirasini oshirish, Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirish uchun konstitutsiyaviy tuzatishlarni ma'qulladi.

Siyosiy islohotlar strategiyasi asosida Birlashgan Arab Amirliklari hukumati BAAAdagi siyosiy tizimni isloh qilish uchun muhim qadamlardan yana biri - 2007 yildagi BAA hukumati strategiyasidir. Strategiya federal va mahalliy hukumatlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini ta'minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, u vazirliklarning tartibga solish va siyosatni ishlab chiqish rolini jonlantirish, ularning qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning xizmatlarini aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, shuningdek, vazirliklarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishga qaratilgan amaldagi qonunchilikni isloh qilishga yo'naltirildi.

Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish ham siyosiy-huquqiy tizim rivojlanishiga xizmat qildi. 2008 yil oxirida Konstitutsiyaning 62-moddasiga kiritilgan o'zgartirish muhim voqeа bo'ldi. O'zgartirilgan qonunda aytishicha, Bosh vazir yoki uning o'rnbosarlari yoki har qanday federal vazir daromad beruvchi hech qanday qo'shimcha kasbiy faoliyat yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, mahalliy yoki federal hukumat bilan biznes bitimi tuzishi mumkin emas.

Bundan tashqari, 2008 yilda Oliy Kengash FMKning vakolatlarini yanada kengaytirish va uning ta'sir doirasini kengaytirish uchun 72, 78 va 91-moddalarga konstitutsiyaviy tuzatishlarni ham tasdiqladi. Har bir amirlik Konstitutsiyani qurish va himoya qilishga, shuningdek, uning xizmatlaridan foydalanishga hissa qo'shishi kerak. Barcha a'zo amirliklar standartlashtirish maqsadida hamma sohalarda qonun chiqaruvchi organlarini muvofiqlashtirishga intiladi. Birlashgan Arab Amirliklari Konstitutsiyasining 127-moddasida har bir a'zo amirlik Federatsiyaning yillik umumiyl byudjeti xarajatlarini qoplash uchun yillik daromadlarining ma'lum bir qismini to'lashi shart. 116-119-moddalar a'zo amirliklarning asosiy vakolatlarini belgilaydi.

Dubay Ijroiya Kengashi Dubayda shahar xavfsizligi va tartibini saqlash, kommunal xizmatlar bilan ta'minlash hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlariga erishish bo'yicha qarorlar qabul qiluvchi asosiy davlat organi hisoblanadi. Kengash Dubay hukmdoriga amirlikni rivojlantirish rejalarini tayyorlash va mahalliy qonunchilikni shakllantirishda yordam beradi. Kengashga valiahd shahzoda rahbarlik qiladi.

Dubay hukmdori amirlikda mas’uliyatli lavozimda bo‘lgan barcha kishilarni qator muhim tamoyillarga amal qilishga, ularga har qanday vaziyatda amal qilishni ta’minlashga chaqiradi. Bu tamoyillar xalq farovonligi, barqaror taraqqiyot va kelajak avlodlar farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat: ittifoqning asosiyligi; hech kim qonundan ustun emasligi; bular biznes kapitali ekani; o’sishga uchta omil sabab bo‘lishi; BAA jamiyatining o‘ziga xos xususiyatga ega ekani; iqtisodiy diversifikatsiyaga ishonish; iste’dodlar uchun zamin yaratish; kelajak avlodlar haqida qayg‘urish.

Sharjada Konsultativ Kengashdan tashqari Ijroiya Kengashi mavjud. Mamlakatning sharqiy qirg‘og‘ida uchta anklavga ega: Sharja, Kalba va Xor. Fakkandagi rais o‘rnibosarlari boshchiligidagi Amiri Divon (sud) bo‘limlariga mahalliy asosda hokimiyatni topshirish amaliyotini qo‘llagan.

Kengashlar, munitsipalitetlar, departamentlar va avtonom idoralarning xuddi shunday namunasi boshqa amirliklarda ham (masalan, Ajman, Umm Al-Quvayn, Ras al-Xayma va Fujayradagi mahalliy hokimiyat organlari) mavjud. Har bir amirlikning o‘z hukmdori bo‘lib, uning hukmronligi irsiy shayxlikka asoslangan. Har bir amirlikning hukmdori o‘rniga uning valiahd shahzodasi o‘tadi. Har bir amirlikning o‘z valiahd shahzodasi bor.

Har bir amirlik Konstitutsiyada nazarda tutilgan federal hokimiyat organlari bilan hamkorlikda mahalliy hokimiyat organlarini boshqarishni o‘z zimmasiga oladi. Konstitutsiyaning 122-moddasida mahalliy amirliklarga Federatsiyaning mutlaq yurisdiksiyasiga kiritilmagan barcha masalalar bo‘yicha yurisdiksya berilgan.

BAA suveren davlat bo‘lib, o‘zining tabiiy resurslaridan foyda ko‘radi - neft va tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha dunyoda yettingchi o‘rinda turadi va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu imkoniyat Amirliklarni savdo, sayohat, turizm va molianing yirik markaziga aylantirdi. Dubaydagagi Burj Xalifa, dunyodagi eng baland inshoot, Amirliklarning dramatik qurilish bumi va global mashhurlikka ko‘tarilishining ramzidir. Uning shaharlari dunyodagi eng zamonaviy shaharlardan biri bo‘lsa-da, mamlakat diniy qonunlar bilan boshqariladigan monarxiya bo‘lib qolmoqda - uning prezidenti va bosh vaziri mos ravishda Abu-Dabi va Dubayning mutlaq monarxlaridir.

Shariat sndlari tufayli BAAda kaltaklash va toshbo‘ron qilish sud jazosining qonuniy shakllari hisoblanadi. Hukumat so‘z va matbuot erkinligini cheklaydi va mahalliy ommaviy axborot vositalari hukumatni, hukumat amaldorlarini yoki qirol oilalarini tanqid qilmaslik uchun senzuradan o‘tkaziladi. Natijada, BAA inson huquqlari va matbuot erkinligi bo‘yicha ko‘plab xalqaro mezonlar bo‘yicha quyi o‘rinlarda turadi.

Birlashgan Arab Amirliklari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kengashiga saylanganiga qaramay, inson huquqlari va mehnat huquqlari bo'yicha ko'pgina xalqaro shartnomalarni, shu jumladan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktni, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktni va Konvensiyani imzolamagan. [6].

2020-yil aprel oyida Birlashgan Arab Amirliklari rasmiylari Birlashgan Arab Amirliklarida COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq noto'g'ri ma'lumotlar va mish-mishlar tarqatilgani uchun jinoiy jazo joriy etdi. 2020-yil 11-may kuni AQShda joylashgan Fors ko'rfazi huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot hisobotida bunday vaziyat tanqid qilinadi.

BAA aholisining atigi 11 foizini tub aholi tashkil etadi. Ular davlat idoralarida ishlaydi va moliyaviy firmalarda yuqori lavozimlarni egallaydi. Qolgan 89 foizi qo'shni arab davlatlari, Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlaridan Amirliklarga kelgan mutaxassislar va ishchilardir. Barcha mehnat migrantlari va ular oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish nuqtai-nazanridan, 2020 yil noyabr oyida Birlashgan Arab Amirliklari boshqa o'zgarishlar qatorida alkogol iste'moliga qo'yilgan cheklovlarini yumshatish, birga yashashga ruxsat berish kabilar bo'yicha qonunchilik tizimini qayta ko'rib chiqdi.

XULOSA

BAA mintaqada harbiy-siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga katta e'tibor qaratmoqda. Abu-Dabi Fors ko'rfazi mintaqasida kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish tarafdori. Shu bilan birga, mintaqadagi arab davlatlarining xavfsizligini faqat umumiyy mudofaa strategiyasi asosida ta'minlash mumkin, deb hisoblanmoqda. Ijtimoiy va madaniy jihatlar, Amirlik mutaxassislarining fikricha, xavfsizlikka bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishi mumkin. Globallashuv va texnologik inqilob davri yangi ko'nikma va qobiliyatlarni talab qiladi. Mamlakat rahbariyati o'zgarib borayotgan dunyoda yosh avlodning munosib o'rinn egallashi uchun chora-tadbirlar ko'rishi zarur. Axborot va dezinformatsiya uchun mo'ljallangan ikki tomonlama axborot texnologiyalarining ta'siri kuchaymoqda, bu tanlovda g'olib chiqish juda muhimdir. Shu bilan birga, axborot sohasidagi inqilob menejerlarning yangi avlodini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli Kuchlari Oliy Qo'mondoni Federatsiya prezidenti, uning o'rinosi esa Abu-Dabi valiahd shahzodasi hisoblanadi. Harbiy rivojlanish va Qurolli Kuchlarni moliyalashtirishning eng muhim masalalari Abu Dabi va Dubay rahbarlarining hal qiluvchi fikri bilan Amirlar Oliy Kengashi tomonidan hal qilinadi.

Birlashgan Arab Amirliklarining harbiy doktrinasi mudofaa xarakteriga ega bo‘lib, mintaqadagi hamkor davlatlarning harbiy-siyosiy ittifoqiga va yetakchi G‘arb davlatlari – AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniyaning xavfsizlik kafolatlariga asoslanadi. Cheklangan harbiy kadrlar sharoitida asosiy e’tibor qurolli kuchlarni zamonaviy turdag‘i qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlashga qaratilmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha xususiyatlar BAA ning siyosiy tizimidagi o‘ziga xosliklarni belgilab beradi. Ushbu mamlakat bilan xalqaro munosabatlarga kirishadigan har bir davlat yoki tashkilotlar bu o‘ziga xosliklarni hisobga olishi esa, o‘zaro hurmat va do‘stona xamkorlikni ta’minlashda muhim o‘rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Abdulkhaleq Abdulla. Contemporary socio-political issues of the Arab Gulf moment. -UAE, 2010.
2. UAE Government Center for Documentation and Research. “UAE History: Portuguese Era.” <http://www.cdr.gov.ae/english/uaeGuide/hisPortuguese2.aspx>
3. Peck, M.C. “The United Arab Emirates: A Venture in Unity.” 1986. Westview Press, Colorado.
4. Davidson, C. “The UAE: A Study in Survival.” Lynne Rienner Co. 2005.
5. US Dept of State. Bureau of Near Eastern Affairs. “Background Notes: United Arab Emirates.” October 2006.
6. Kenneth Katzman. The United Arab Emirates (UAE): Issues for U.S. Policy. Congressional Research Service, 2011.